



UDK: 582.752.2: 581.9

Marhamat MATVAFAYEVA,
O‘zRFA Botanika instituti O‘zbekiston Milliy gerbariysi yetakchi mutaxassisi, b.f.n
E-mail: botany@academy.uz
Oybek MAMARAXIMOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti Ekologik monitoring kafedrasida mudiri

TDPU professori, b.f.d. O‘.E.Xo‘janazarov taqrizi asosida

RESULTS OF INVENTORY OF THE GENUS *ERYNGIUM* L. KEPT IN THE UNIQUE SCIENTIFIC FACILITY “NATIONAL HERBARIA OF UZBEKISTAN” (NHU)

Annotation

This article presents the results of the inventory of herbarium specimens of species belonging to the genus *Eryngium* L., which are kept as unique objects in the National Herbarium of Uzbekistan (NHU). According to the results of the inventory, it was found that there are 368 herbarium specimens belonging to 11 species of the *Eryngium* L. family. Among the herbarium specimens in this groups, it was found that there are 11 herbarium specimens of the species *Eryngium octophyllum* Korovin, which is considered endemic to the flora of Uzbekistan.

Key words: National Herbarium of Uzbekistan (NHU), herbarium, specimens, genus, type, catalog, inventory.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ РОДА *ERYNGIUM* L. ХРАНЯЩИХСЯ В «НАЦИОНАЛЬНОМ ГЕРБАРИИ УЗБЕКИСТАНА» (ТАШ) КАК УНИКАЛЬНЫЙ ОБЪЕКТ

Аннотация

В данной статье представлены результаты инвентаризации гербарных образцов видов рода *Eryngium* L., которые хранятся как уникальные объекты в Национальном гербарии Узбекистана (ТАШ). По результатам инвентаризации установлено, что имеется 368 гербарных экземпляров, принадлежащих 11 видам рода *Eryngium* L. Среди гербарных образцов этой группы обнаружено 11 гербарных экземпляров вида *Eryngium octophyllum* Korovin который считается эндемиком флоры Узбекистана.

Ключевые слова: Национальный гербарий Узбекистана (ТАШ), гербарий экземпляр, род, вид, каталог, инвентаризация.

O‘ZBEKISTON MILLIY GERBARIYSI (TASH) NOYOB ILMIY OB‘EKT SIFATIDA SAQLANAYOTGAN *ERYNGIUM* L. TURKUMI INVENTARIZATSIYASI NATIJALARI

Аннотация

Mazkur maqolada O‘zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) noyob ob‘ekti sifatida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumiga mansub bo‘lgan turlarning gerbariy namunalari inventarizatsiyasi bo‘yicha natijalari keltirilgan. Olib borilgan inventarizatsiya natijalariga ko‘ra *Eryngium* L. turkumining 11 turga mansub 368 dona gerbariy namunasi mavjudligi aniqlandi. Ushbu turkumning gerbariy namunalari orasida O‘zbekiston florasining endemi hisoblangan *Eryngium octophyllum* Korovin turning 11 dona gerbariysi borligi ma‘lum bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), gerbariy namunalari, turkum, tur, katalog, inventarizatsiya.

Kirish. O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ilmiy ob‘ektida ikki asrdan beri saqlanayotgan gerbariy namunalari borki ularning aksariyati tabiatdan asl holati kabi saqlanmoqda. Bu noyob ob‘ektida 1,5 millondan ortiq gerbariy namunalari saqlanadi deb kelinadi [1]. U. Prатов va T.Adilov [2] ma‘lumotlariga ko‘ra TASH fondida 1,1 millondan ortiq gerbariy mavjud bo‘lib, ular O‘rta Osiyo sektorida O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog‘istonning janubiy hududlaridan terilgan 8100 turga mansub 1 mln. gerbariy namunasi umumiy sektorda MDH davlatlari va dunyoning turli mamlakatlaridan yig‘ilgan 10000 turga mansub 100000 gerbariy namunasi, tip sektorida esa, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston florasiga mansub 60 oila 320 turkumga mansub 1500 dan ortiq turlarning 200 ga yaqin tip va izotiplari, almashuv sektorida 1400 ta turning gerbariy namunalari mavjud. Yuqoridagi ma‘lumotda 30 yilga yaqin vaqt bo‘lgan bo‘lsada, hozirgi kungacha O‘zbekiston Milliy gerbariysi fondida nechta gerbariy namunalari saqlanishi to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Chunki inventarizatsiya ishlari batamom yakunlanmaguncha ushbu noyob ob‘ektida saqlanayotgan gerbariy namunalari aniq sonini aytish mushkul. Ushbu maqolada TASH fondida saqlanayotgan *Eryngium* L.turkumi (*Apiaceae* Lindl. oilasi) turlariga oid gerbariy namunalari inventarizatsiyasi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ob‘ekti va metodlari. Inventarizatsiya ishlari 2023 yil davomida olib borildi. Tadqiqot ob‘ekti (TASH) fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumi, turlariga oid gerbariy namunalari hisoblanadi. Taksonlarning mualliflari R.K.Brummit, C.E.Powell [3] keltirildi. Endem va kamyob turlarni aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi I tomidan foydalanildi [4]. Inventarizatsiya ishlari (Enger Prantl I tasniflash tizimiga asoslangan) Dalla Toree va Harms tomonidan modifikatsiya qilingan turkumlarning raqamlar ketma-ketligi asosida olib borildi. TASH fondidagi ushbu turkumga tegishli turlarning nomlari gerbariy namunalari qanday bo‘lsa shundayligicha keltirildi. Mavjud gerbariy namunalari aniqlashda Markaziy Osiyo o‘simliklarini aniqlagich kitoblari asosida (*Определитель растений Средней Азии критич. конспект флоры Сред. Азии*) aniqlandi [5,6]. Turlarning nomlari va ularning asosiy sinonimlari “Plants of the World online” (www.plantsoftheworldonline.org) [7] xalqaro elektron ma‘lumotlar bazasi asosida keltirildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ilmiy ob'ekti fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumi (*Apiaceae* Lindl.) oilasiga mansub bo'lib, dunyo bo'yicha 450 ga yaqin turkumi, 3700 ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Shulardan *Eryngium* L. turkumi tropik, subtropik va mo'tadil zonalarda Meksika va Janubiy Amerikada uchraydi. *Eryngium* L. turkumining ko'pgina turlari ochiq maydonlarda va issiqxonalarda bezak, manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. *Eryngium planum* turi sobiq SSSR va G'arbiy Yevropa xalqlari orasida dorivor o'simlik sifatida keng qo'llaniladi. Rossiya va qo'shni mamlakatlar hududida 15 ga yaqin turlari mavjud. O'rta Osiyoda 7 turi, O'zbekiston florasida quyidagi 5 turi [8] yani *Eryngium macrocalyx* Schrenk, *Eryngium octophyllum* Korovin, *Eryngium incognitum* Pavlov, *Eryngium mirandum* Bobr., *Eryngium biebersteinianum* Nevski tarqalgan. Bulardan bitta *Eryngium octophyllum* Korovin turi O'zbekiston florasida endemi hisoblanadi. Qizilqum qoldiqlari, G'arbiy Pamir-Oloy (Nurota va Zirabuloq tog'lari, Zarafshon tizmalarida tarqalgan).

1 -jadval

O'zbekiston Milliy Gerbariysi (TASH) fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumining gerbariy namunalari

| № | Turlarning nomlari | Gerbariy namunalari soni |
|----|--|--------------------------|
| 1 | <i>Eryngium badghysi</i> Eug Korovin | 3 |
| 2 | <i>Eryngium biebersteinianum</i> Nevski, 1937, Trudy Bot. Inst. Akad. Nauk S.S.S.R., Ser. 1, Fl. Sist. Vyssh. Rast. 4:275, nom. superfl. | 41 |
| 3 | <i>Eryngium billardieri</i> Delaroché Nouv. Sci. Soc. Philom. Paris 1:87 (1807). | 11 |
| 4 | <i>Eryngium bungei</i> Boiss. Fl. Orient. 2:824 (1872). | 11 |
| 5 | <i>Eryngium caeruleum</i> M. Bieb. Tabl. Prov. Mer Casp.:112 (1798) | 56 |
| 6 | <i>Eryngium caucasicum</i> Trautv. Trudy Imp. S.- Peterburgsk. Bot. Sada 1: 23 (1871). | 16 |
| 7 | <i>Eryngium incognitum</i> Pavlov Byull. Moskovsk. Obsch. Isp. Prir., Otd. Biol., n.s., 47:81 (1938). | 17 |
| 8 | <i>Eryngium karatavicum</i> Iljin First published in Repert. Spec. Nov. Regni. Veg. 39: 320 (1936). | 14 |
| 9 | <i>Eryngium macrocalyx</i> Schrenk Enum. Pl. Nov. 1:60 (1841) | 158 |
| 10 | <i>Eryngium octophyllum</i> Korovin Bot. Mater. Gerb. Inst. Bot. Zool. Akad. Nauk Uzbeksk. S.S.R. 8:4 (1947). | 11 |
| 11 | <i>Eryngium planum</i> L. Sp. Pl.: 233 (1753). | 30 |
| | <i>Eryngium</i> sp. | 5 |
| | Jami: | 373 |


2 -jadval**TASH fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumining O'zbekiston florasida uchun endem turining gerbariy namunasi**

| Shkaf raqami | Turning nomi | Tarqalgan joyi | Gerbariy namunasi soni |
|--------------|-------------------------------------|---|------------------------|
| 5923 | <i>Eryngium octophyllum</i> Korovin | Qizilqum (qoldiq tog'i) G'arbiy Pamir-Oloy (Nurota tog'i va Zarafshon tizmasi) | 11 |

Inventarizatsiya natijalariga ko'ra 5923 raqamli maxsus shkaf javonida *Eryngium* L. turkumi 11 turining 368 dona gerbariy namunasi, sp-5 dona, jami umumiy gerbariylarning soni 373 dona ekanligi aniqlandi. Bulardan *Eryngium badghysi* (3 ta), *Eryngium biebersteinianum* (41), *Eryngium billardieri* (11), *Eryngium bungei* (11), *Eryngium caeruleum* (55), *Eryngium caucasicum* (16), *Eryngium incognitum* (17), *Eryngium karatavicum* (14), *Eryngium macrocalyx* (158), *Eryngium octophyllum* (12), *Eryngium planum* (30 ta) va *Eryngium* sp (5 ta) ni tashkil etdi. Yuqorida qayd etilgan *Eryngium octophyllum* O'zbekiston florasining endemi hisoblanadi jami 11 ta gerbariy namunasi mavjud bo'lib bulardan eng dastlabki gerbariy namunasi Nurata honligi (01.07.1937) davrida Pichet qishlog'i tog'lari atrofida n° 290.04.05.1913.TASH 00200988. E.P.Korovin tomonidan yig'ilgan; Oqto'v tizmasi, Nurota tog'lari, Chiya qishlog'idan 7-9 km janubdan n° 400. 01.07.1937. Demurina; Nurota tog'i, Sonnik cho'qqilari. n° 273. 4. 07.1940. TASH 00200991. P.Gomolitskiy; Nurota tog' tizmasi, Konsoy shimoliy yon bag'irlari n°88. 13.05.1951.TASH 00200986. N.S.Zapromrtov; Hisor tizmasi, Langar daryosi havzasi, Langar qishlog'i atrofi, og'ir shag'alli qiyalikda n° 208. 21.08. 1952. Litvinko; Pomir-Oloy tog'lari, Oq-tov, Samarqand viloyati n°1568. 29.05.1963. TASH 00200992. Xaydarov eng so'nggi gerbariy namunasi Nurota tog'i, Talabay soyning shimoliy yon bag'ri (Kulbasoyning chap qirg'og'i), Yangiqishloqdan 8 km janubda, dengiz sathidan balandligi 1200 m., tuprog'i toshloq-shag'alli, shimoliy-sharqiy qismida 27.05.2012. TASH 00200989. N.Yu.Beshko tomonidan yig'ilgan. *Eryngium badghysi* Badkiz-Turkmanistonning janubi-sharqida, Pul-i-Xatum hududi, Glz-g'yadik tog'lari, Raxma-tur perevali shag'alli qiyalikda n°1018. 08.1931. I.Linchevskiy, O.Linchevskiy; Badkiz-Turkmanistonning janubi-sharqida, Gyaz-g'yadik tizmasi, Pul-i-Xatum hududi. Janubiy qiyalik tog' yonbag'irlari n°1018. 08.1931. I.Linchevskiy, O.Linchevskiy tomonidan yig'ilgan. Bu gerbariy namunalari faqat Turkmanistonning Badkiz hududidan yig'ilgan. *Eryngium biebersteinianum* turining gerbariy namunalari o'tgan asrda yig'ilgan bo'lib, eng dastlabki namunasida G'arbiy Tiyon-Shon, Minjelki tog'i yaqinida joylashgan n° 580. 7. 08. 1928. TASH 00200682. M.Kultiasov; *Olmoti atrofi Yenbekshikazax tumani* n° 510. 00. 00.1928. TASH 00200684. S.Titov; Bobotog' tizmasining shimoliy qismi, Hisor vodiysi n° 52. 25.05. 1936. TASH 00200677. P.Gomolitskiy, P.Federovlar tomonidan yig'ilganligi ma'lum bo'ldi. Monitoring natijalariga ko'ra gerbariy namunalarning soni jihatdan quyidagi turlarning ustunlik qilishi ma'lum bo'ldi: *Eryngium macrocalyx*-158 ta, *Eryngium caeruleum*- 56, *Eryngium biebersteinianum* -41, *Eryngium planum* -30 ta, ayrim turlarning gerbariy namunasi faqat *Eryngium badghys* i-3 ta nusxani tashkil etdi.

TASH fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumi turlariga oid gerbariy namunalari terishda M.V.Kultiasov, S.N.Kudryashyev, A.I.Vvedenskiy, V.Gromakov, M.M.Sovetkina, E.E.Korotkova, G.P.Sumnevich, G.A.Balabayev, V.Drobov, V.Paziy, A.Granitov, V.E.Demurina, A.Butkov, M.M. Nabiyev, U. Pratorov kabi bir qator olimlarning hissalari katta bo'lgan (3) jadval.

3-jadval***Eryngium* L. turkumi turlarining asosiy kollektorlari**



Xulosa va takliflar. TASH fondida saqlanayotgan *Eryngium* L. turkumi turlariga mansub gerbariy namunalari tahlillari shuni ko'rsatdiki so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan dala tadqiqotlarida bu turkumga mansub turlarning gerbariy namunalari juda kam miqdorda yig'ilganligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib *Eryngium* L. turkumi doirasida olib borilayotgan zamonaviy botanik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish, TASH fondini *Eryngium* L. turkumiga mansub gerbariy namunalari bilan boyitish va turkum turlariga oid turlarning yangi populyatsiyalarini aniqlash uchun maqsadli dala tadqiqotlari, muntazam kuzatuv-monitoring ishlarini olib borish lozimligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Prator U., Adylov T. (Translated from Russian and revised by R. Eritsch): The Central Herbarium of the Botanical Institute, Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan.- Taxon 45: 143-144.1996.- ISSN 0040-0262.
2. Brummit R. K& Powell C.E. Authors of Plants names.- Kew: Royal Botanic Gardens (U.K.), 1992.-732p.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi I tom.-Tashkent: "Chinor ENK", 2019.
4. Пименов М. Г. Определитель растений Средней Азии. Т. VII.-Т.: Фан, 1983. - С. 177-180.
5. Определитель Растений Средней Азии. Критический конспект флоры. XI. Т.-Ташкент,-2015.-С 118.
6. Plant of the World online (Powo). <http://www.powo.science.kew.org> (Murojat etilgan sana: 20-24. 01.2024).
7. Коровин Е. П. Umbelliferae - Зонтичные // Флора Узбекистана. Т. IV.-Ташкент: АН Уз ССР, 1959.- С. 263-268.